

DASTURIY TA' MINOT TIZIMLARI ORQALI AJRATILADIGAN KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

1. KREDIT MAHSULOTI TO'G' RISIDA MA'LUMOT			
Kredit mahsuloti nomi	I M K O N I Y A T		
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan/Kredit liniyasi ochish orqali		
Kredit maqsadi	Joriy faoliyatni moliyalashtirish (xom-ashyo, tovarlar, mahsulotlar, yordamchi (butlovchi) qismlarni sotib olish, bajarilgan ishlar va xizmatlar to'lovini to'lash, oylik ish haqqi to'lovlarni amalga oshirish, soliq to'lovlari va yig'imlarini to'lash, shuningdek joriy faoliyat doirasidagi boshqa xarajatlarni qoplash maqsadida aylanma mablag'larni to'ldirish) uchun. Kredit mablag'i mijozning 2-sonli kartoteka bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lmagan holatda, uning ssuda hisobvarag'idan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish yoki bank kassasi orqali naqd pul berish orqali ajratiladi. Kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishi alohida tartibda tekshirilmaydi va dalolatnoma tuzish orqali rasmiylashtirilmaydi.		
Qarz oluvchilar	Dasturiy ta' minot tizimlaridan foydalanish davri olti (6) oydan kam bo'lmagan, tadbirkorlik faoliyatining quyidagi turlari bilan shug'ullanib kelayotgan tadbirkorlik subyektlari (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlar): - chakana va ulgurji savdo hamda xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va xususiy tadbirkorlar; - oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi, eksport qiluvchi, yetkazib beruvchi korxonalar; - savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari; - bozorlarda va boshqa savdo nuqtalarida qishloq xo'jaligi, oziq va nooziq-ovqat iste'mol tovarlari chakana savdosini bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari.		
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'mda		
Kredit miqdori	skoring va tahlil natijalariga ko'ra yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlar uchun naqd pulsiz ko'rinishda		skoring va tahlil natijalariga ko'ra yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun naqd pulsiz ko'rinishda
	500 000 000,0 (besh yuz million) so'mgacha.	QQS to'lovchisi bo'lgan yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlar uchun 1 600 000 000,0 (bir milliard olti yuz million) so'mgacha.	1 600 000 000,0 (bir milliard olti yuz million) so'mgacha.
	Faoliyatida naqd pul mablag'lariga ehtiyoji bo'lgan va naqd pulda amaliyotlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun skoring va tahlil natijalariga ko'ra naqd pul ko'rinishda		
	200 000 000,0 (ikki yuz million) so'mgacha		
	Skoringda to'plangan ballar	Limit summasi	Tushumga nisbatan cheklavlar
	85 - 100 ballar	1 600 000 000,00	85-100 ball → yillik tushumni 50% gacha
	70 - 84 ballar	1 200 000 000,00	70-84 ball → yillik tushumni 40% gacha
	55 - 69 ballar	800 000 000,00	55-69 ball → yillik tushumni 30% gacha
40 - 54 ballar	400 000 000,00	40-54 ball → yillik tushumni 20% gacha	
20 - 39 ballar	200 000 000,00	0-39 ball → yillik tushumni 10% gacha	
0 - 19 ballar	50 000 000,00		
Kredit muddati	18 oygacha		
Kredit foizlarini to'lash tartibi	har oyda		
	Kredit muddati 12 oygacha	1 oygacha	
	Kredit muddati 15 oygacha	2 oygacha	
	Kredit muddati 18 oygacha	3 oygacha	
Foiz stavkasi	Skoringda to'plangan ballar		Yillik foiz stavkasi
	85 - 100 ballar		37%
	70 - 84 ballar		38%
	55 - 69 ballar		39%
	40 - 54 ballar		40%
	20 - 39 ballar		41%
0 - 19 ballar		42%	
Kreditni qaytarish tartibi	Differensial/Annuitet		
Kredit qarzdorligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda jami qarzdorlik 3,5 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan (Markaziy Bankning ko'rib chiqilayotgan kundagi rasmiy kursi bo'yicha aniqlanadi) oshmasligi lozim. Nazorat asosida bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan (Markaziy Bankning ko'rib chiqilayotgan kundagi rasmiy kursi bo'yicha aniqlanadi) oshmasligi lozim.		
2. Kredit ta' minoti			
Kredit ta' minoti	"Inson" sug'urta kompaniyasining kreditning qaytmasligi xatarini sug'urtalash polisi;		
3. Kreditni taqdim etish tartibi			
Talab etiladigan hujjatlar	Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar	1. Kredit arizasi; 2. Ustav, ta' sis hujjatlari, guvohnoma, ta' sischilar, korxonahabbari (buxgalteri) pasporti, lavozimga tayinlanishi bo'yicha buyruqlar nusxalari;	
	Yakka tartibdagi (xususiy) tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar	1. Kredit arizasi; 2. Faoliyat guvohnomasi; 3. Pasport nusxasi; 4. QQS to'lovchisi ekanligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;	
4. Qo'shimcha shartlar			

Mahsulot bo'yicha stop-faktorlar	<ol style="list-style-type: none">1. BILLZ platformasida mijoz ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kamida 6 oy mobaynida faoliyat yuritgan bo'lishi lozim.2. Amaldagi kreditlar bo'yicha kechiktirilgan to'lovlar mavjud bo'lmashligi zarur. Kredit tarixiga oid talablar (oxirgi 12 oy davomida):<ul style="list-style-type: none">- 30 kundan ortiq kechiktirilgan to'lov holatlari 2 martadan oshmasligi lozim;- 60 kundan ortiq kechiktirilgan to'lov holati 1 martadan oshmasligi kerak;- 90 kundan ortiq kechiktirilgan to'lovlar umuman bo'lmashligi shart.4. Mijozning nazorat ostidagi affillangan kompaniyalarida, AKB "ASIA ALLIANCE BANK" tizimida, muddati o'tgan kredit qarzlari mavjud bo'lmashligi lozim.5. Mijozning affillangan kompaniyalari tomonidan "ASIA ALLIANCE BANK" tizimida amaldagi kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlari mavjud bo'lmashligi va bunday kreditlar "qoniqsiz", "shubhali" yoki "umidsiz" toifalariga kiritilmagan bo'lishi lozim.6. Mijozga nisbatan Majburiy ijro byurosida ochilgan ijro ishi mavjud bo'lmashligi, pul to'lovlari bilan bog'liq majburiyatlar bo'yicha undirish chorasi ko'rilayotgan holatlar kuzatilmashligi kerak.7. So'nggi 3 yil davomida kredit majburiyatlari bo'yicha sud jarayonlarida ishtirok etgan va da'vo to'liq yoki qisman qanoatlanirilgan hollarda, kredit so'rovi rad etiladi.8. Hisobdan chiqarilgan, ammo to'liq yopilgan yoki qayta undirilayotgan kredit qarzlari mavjud bo'lmashligi lozim.9. "Imkoniyat" mahsuloti bo'yicha ajratiladigan umumiy kredit summasi 1,6 milliard so'mdan oshmasligi kerak.10. Yuridik shaxsning Yagona davlat reestrtdagi (EGRP) so'nggi 6 oy ichidagi o'zgarishlar alohida tartibda ko'rib chiqiladi va asoslangan taklif shaklida tahlil qilinadi.
---	---